O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“TURIZM” KAFEDRASI

“TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYON JARAYONLARDAN SAMARALI FOYDALANISH IMKONIYATLARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

Konferensiya, O‘zbekiston Respublikasi Perezidentining 2023-yil 26-apreldagi “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-135 sonli Qarori ijrosi yuzasidan o‘tkazildi

(2024-yil 25-oktabr)

SAMARQAND-2024

Turizm sohasini rivojlantirishda innovatsiyon jarayonlardan samarali foydalanish imkoniyatlari. / 2024-yil 25-oktabr. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Samarqand, SamISI, 2024.-710 bet.

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:
S.A.Abduhamidov-kafedra mudiri, dotsent
G.R.Tursunova-kafedra dotsenti v.b.
A.Y.Talibova-kafedra o‘qituvchisi

Nashr uchun mas’ullar:
I.S.Tuxliyev-kafedra professori, i.f.d.
R.S.Amriddinova-kafedra dotsenti, i.f.n.
A.P.Maxmudova-kafedra dotsenti, i.f.f.d.
R.Hayitboyev-kafedra dotsenti v.b.

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida Turizm sohasini rivojlantirishda innovatsion jarayonlardan samarali foydalanishning nazariy-metodologik masalalari, raqamli iqtisodiyot sharoitida xalqaro va ichki turizmni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari, uchinchi renessansni shakllantirishda turizmning rivojlanishi: muammolar va yechimlar, raqamli hamda innovatsion texnologiyalardan foydalanishda iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari, Navoiy viloyatida turizm xizmatlarini diversikatsiya qilish tendensiyalari bo‘yicha ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqolalar o‘rin olgan.

Professor-o‘qituvchilar, talabalar, magistrlar, tadqiqotchilar va soha mutaxassislariga mo‘ljallangan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024

8. Макаров.А.В, Гарифуллин.А.Р. Диверсификатsiя как инструмент развития современного предприятия// Известия УрГЭУ. –2010. –No 1(27). – С. 27–36.

9. Новицкий Е.Г. Проблемы стратегического управления диверсифицированными корпоратsiями.-Москва: Буквица, 2001. –256с.

10. Мирзаев К.Д., Алиева М.Т. Основы туризма. Учебное пособие. Ташкент

11. Alam, M. (2018, May 28). The Type of Tourism practiced in Chitral is conscious of the People's Culture.

12. Baloch, Q. B. (T. A. Shah, Interviewer 2008). Managin Tourism in Pakistan (A Case study of Chitral). Qurtaba University.

A.K.Turayev-SamISI mustaqil izlauvchisi

NAVOIY VILOYATI TURIZM POTENSIALI VA UNDAN FOYDALANISH HOLATI

Аннотатsiя: В статье проанализирован туристический потенциал Навоийской области и современное состояние его использования, а также разработаны предложения и рекомендатsiи по дальнейшему развитию отрасли в регионе.

Ключевые слова: Навои, международный туризм, внутренний туризм, туристские ресурсы, турпоток, дестинатsiя, инфраструктура.

Abstract: The article analyzes the tourism potential of the Navoi region and the current state of its use, and also develops proposals and recommendations for the further development of the industry in the region.

Key words: Navoi, international tourism, domestic tourism, tourism resources, tourist flow, destination, infrastructure.

O‘zbekistonning har tomonlama barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashda turizm salohiyatini yanada oshirish hamda undan samarali foydalanish masalasiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot Strategiyasida ham turizm sohasini rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biri sifatida mahalliy sayyohlar sonini 12 milliondan oshirish hamda xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish vazifasi belgilab olingan. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlashning hozirgi sharoitlarida turizmning investitsion jozibadorligini oshirish, davlat va xususiy biznesning sherikchilik mexanizmlaridan foydalangan holda turizm salohiyati rivojlanishini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, turizm salohiyatini rivojlantirishning yangicha mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda mamlakatimizning har bir hududi salohiyatini o‘rganish hamda undan samarali foydalanish masalalari dolzarb bo‘lib hisoblanadi. Xususan, turizm sohasini barcha hududlar qatorida Navoiy viloyatida ham rivojlanish, uning turistik destinatsiyalaridan yanada samaraliroq foydalanish negizida yangi turistik yo‘nalishlarni ochish maqsadga muvofiqdir.

Navoiy viloyati O‘zbekistonning boshqa mintaqalarga nisbatan ancha yosh, uning ma‘muriy markazi Navoiy shahri. Viloyatning umumiy maydoni 110,91 ming kvadrat kilometr, aholisi esa 942 843 kishidan iborat. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Navoiy shahri o‘rnida bir vaqtlar Buxoro xonligi tarkibiga kirgan qishloq bo‘lgan. 1958-yilda hukumat qaroriga muvofiq qishloq hududida kon-metallurgiya kombinati qurilishi boshlangan va yangi shahar tashkil etilgan, shaharga Alisher Navoiy sharafiga Navoiy nomi berilgan.

Mintaqa tabiati xilma-xil: shimoli-g‘arbda Qizilqum cho‘li, Janubi-Sharqda Nurota tog‘ tizmasi va Zarafshon daryosi bo‘ylab turli xil qishloq xo‘jaligi dalalari. Zarafshon daryosi bilan bir qatorda, Aydarkul, Shurkul, Tudakul kabi ko‘plab boshqa yirik suv manbalari mavjud bo‘lib, ular mintaqa tabiatining xilma-xilligiga hissa qo‘shadi. Bu esa Navoiy viloyatining turistik salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Mintaqa tabiiy resurslarga, shu jumladan rangli metallar va qurilish xom ashyolariga boy. Navoiy kon-metallurgiya kombinati dunyodagi eng yirik sof oltin ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi. Shuningdek, “Navoiyazot” AJ, “Elektrokimyoviy zavod” qo‘shma korxonasi, “Navoiy issiqlik elektr stansiyasi” AJ, “Qizilqumtsement” AJ kabi yirik korxonalar mavjud.

Shaharning qulay geografik joylashuvi tufayli O‘zbekiston hukumati tomonidan 2008-yilda “Navoiy Erkin industrial-iqtisodiy zonasi” tashkil etildi. U Janubiy Koreya, Hindiston, Xitoy va Singapur kabi xorijiy sheriklar bilan ishlaydi. Navoiy aeroportida “O‘zbekiston havo yo‘llari” va “Korean Air” bilan hamkorlikda turli mamlakatlarga yuk tashishni amalga oshiruvchi xalqaro intermodal logistika markazi tashkil etildi.

G‘ayrioddiy tabiat, antik davrning noyob tarixiy va me’moriy yodgorliklari-Roboti Malik karvonsaroyi, sardobaning noyob suv ombori, Qosim Shayx majmuasi, Mavlono Orif Deggaroniy masjidi, Chashma majmuasi, Iskandar Zulqarnaynning vayron qilingan qal’asi, Sentob qishlog‘i (haqli ravishda “Mahalliy Shveytsariya” deb nomlanadi), qozoq cho‘ponlari qishlog‘i turizmda g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa Sarmishsoy darasining petrogliflar omboridan sayyohlarni jalb qiluvchi eng muhim manzil sifatida foydalanish imkonini beradi.



1-rasm. **Navoiy viloyatining eng muhim turistik obyektlari**

Navoiy viloyati juda yosh va shu bilan birga gullab-yashnayotgan mintaqa bo‘lsa-da, hudud jihatidan insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan qadimiy va noyob tarixga ega.

Viloyat Samarqand, Buxoro, Xorazm viloyatlari bilan bir qatorda sayyohlar tashrif buyuradigan eng sevimli joylar qatoriga kiradi. U ulkan tarixiy, madaniy va etnografik salohiyatga ega. Bu yerda 340 ta arxeologik yodgorliklar, 69 ta arxitektura yodgorligi, 16 ta monumental san’at yodgorligi va 8 ta muzey mavjud (2-rasm).



2-rasm. **Navoiy viloyatining moddiy-madaniy obyektlari**

Qayd etib o‘tish lozimki, bugungi kunda turizm To‘dakul va Aydarko‘l ko‘llari bo‘ylab rivojlanmoqda. 65 gektar hududni egallagan To‘dakul suv omborining Janubiy qirg‘og‘ida ko‘ngilochar va plyaj dam olish joylari paydo bo‘lmoqda. Aydarko‘l ko‘li atrofida mehmonlar uchun uy lagerlarida tunash, tuya minish va baliq ovlash kabi o‘zgacha xizmatlar tashkil qilinmoqda.

Bugungi kunda Navoiy viloyatida 26 ta turistik korxonalar faoliyat yuritib kelishmoqda. Turistlar uchun 40 dan ziyod yo‘nalishlar bo‘yicha sayohat dasturlari taklif etilmoqda. Xususan, ziyorat turizmi, ekologik turizm, safari turizmi, agroturizm kabi yo‘nalishlarda yangi marshrutlar ishlab chiqilmoqda. Viloyatda 340 kilometr masofada 60 ta obyektdan iborat 14 ta turizm marshrutlarini o‘z ichiga olgan Navoiy “Turizm halqasi” tashkil qilingan bo‘lib, unga Xatirchi, Nurota, Navbahor, Karmana va Qiziltepa tumanlari kiritilgan.



3-rasm. **2015-2023 yillardagi Navoiy viloyatiga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soning o‘zgarish dinamikasi (ming kishi)**[273]

3-rasmdan ko‘rish mumkinki, yildan-yilga viloyat turizm salohiyatidan foydalanish ko‘rsatkichlari oshib, nafaqat mahalliy, balki xorijiy turistlar oqimi ham ortib bormoqda, ammo aytib o‘tish lozimki, turistlar oqimi bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar tahlili ushbu viloyat hududlari turistik salohiyatidan samarali foydalanmayotganligini ko‘rsatmoqda.

Viloyat hududida turizmni yanada rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan infratuzilmani zamonaviylashtirish, turistlar xohish-istaklari asosidagi turistik mahsulotlarni yaratish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati tug‘ilmoqda.

Navoiy viloyati katta hududni egallagan holda rekreatsion hamda ekologik turizm resurslariga boy bo‘lgan hududlardan hisoblanadi. Asosiy maydon Qizilqum cho‘li hududini egallagani uchun cho‘l va chalacho‘l hududlari bilan bog‘liq turizm turlarini rivojlantirish zarur. Yuqoridagi ma‘lumotlarga tayanib, Navoiy viloyatida zamonaviy turizm turlarini rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz:

[273] Navoiy viloyati turizm boshqarmasi ma’lumotlari asosida

-viloyat tumanlaridagi turistik-rekreatsiya resurslarining to‘liq ro‘yxatini tuzish, ichki va xalqaro turizmda foydalanish mumkinligini aniqlash, turistik oqim kuchi va yuklamasi bo‘yicha o‘ziga xos infratuzilmalarni yaratish;

-viloyatdagi turistik-rekreatsiya resurslariga aniq mavzuli ekskursiya marshurtlarini ishlab chiqish va ularni turistik firmalarga foydalanish uchun tavsiya qilish;

-viloyatdagi va boshqa turistik firmalarning faoliyatini ekologik, diniy, madaniy, safari, sport-ekstremal sayyohlik sohalariga yo‘naltirish;

-viloyat tumanlaridagi turistik-rekreatsiya resurslaridan, ayniqsa tabiat maskanlaridan maqsadli foydalanish dasturlarini ishlab chiqish va targ‘ibot-tashviqot, reklama jarayonini rivojlantirish;

-maxsus xizmatlar turlarini, ayniqsa, sayyohlik yo‘nalishiga xos xizmatlar turini kengaytirish orqali xususiy turistik firmalar daromadini ko‘paytirish;

-viloyat o‘quv maskanlarida gid-ekskursiya boshlovchilar mutaxassisligini ustuvor turlar bo‘yicha tayyorlashni tashkil etish;

-viloyatda rekreatsion turizmni rivojlantirishga asos bo‘luvchi marketing tadqiqotlarini davriy ravishda o‘tkazib borish.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish turizm infratuzilmasining yanada rivojlanishiga hamda viloyatda turizmning har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

X.Fayzullayev-SamISI magistranti

OSHIQ OTA ZIYORATGOHI

Аннотатsiя: В данной статье описывается мавзолей Ашик Ота, расположенный в Пастдаргомском районе Самаркандской области и прилегающие к нему объекты экотуризма. В статье также поясняется, что природная красота «Фонтана», целебных источников региона является благоприятной возможностью для развития экотуризма в районе.

Ключевые слова: Индустрия туризма, мавзолей Ашик Ота, культурное наследие, паломнический туризм, экологический туризм, целебные источники, территория «Фонтан».

Abstract: This article describes the Ashik Ota Mausoleum located in the Pastdargom district of the Samarkand region and the adjacent ecotourism sites. The article also explains that the natural beauty of the "Fountain", the healing springs of the region is a favorable opportunity for the development of ecotourism in the area.

Keywords: Tourism industry, Ashik Ota Mausoleum, cultural heritage, pilgrimage tourism, ecotourism, healing springs, the "Fountain" area.

O‘zbekiston iqtisodiyotini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan turizm sohasi barqaror rivojlanish uchun asosiy omillardan biridir. Mamlakatimizda 9000ga yaqin madaniy meros obyektlari mavjudligi, turizm salohiyati keng ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois, so‘nggi yillarda davlat rahbarimiz tomonidan ichki turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu yo‘nalishda aholi o‘rtasida turizm madaniyatini shakllantirish, mavjud ziyoratgohlarni o‘rganish va ularni obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.